



O'zbekiston iqtisodiyotida inflatsiya tendensiyalari va uni pasaytirish yo'llari

O'rinboyeva Y.P

Samarqand iqtisodiyot va servis insituti o'qituvchisi

Ikramov Azizbek

Servis fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekistondagi iqtisodiyotida so'nggi yillarda kuzatilgan inflyatsiya darajasi tahlil qilinadi. Tadqiqot ichki va tashqi omillarni aniqlash, inflyatsiya darajasining pasaytirish strategiyalarini ishlab chiqishga qaratilgan. Shuningdek, davlat siyosati va makroiqtisodiy chora-tadbirlar inflyatsiyani barqarorlashtirishdagi roli ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: inflyatsiya, talab va taklif, pul-kredit siyosati, narx barqarorligi, iqtisodiy o'sish, O'zbekiston.

Annotation: This article analyzes the inflation rate observed in Uzbekistan's economy over the past five years. The study focuses on identifying internal and external factors and developing strategies to reduce the inflation rate. In addition, it examines the role of government policies and macroeconomic measures in stabilizing inflation.

Key words: Inflation, demand and supply, monetary policy, price stability, economic growth, Uzbekistan.

Kirish: Zamonaviy iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lgan inflatsiya ko'pgina mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligiga ta'sir ko'rsatadi. U asosan pulning qadrsizlanishi va tovar hamda xizmatlar narxining oshishi bilan tavsiflanadi. Inflatsiya iqtisodiy rivojlanish jarayonining tabiiy qismi bo'lsa-da, uning nazoratsiz o'sishi aholining turmush darajasiga, biznes faoliyatiga va jamiyatning umumiy farovonligiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'zbekistonda so'ngi yillarda bozor mexanizmining keng joriy qilinishi hamda narxlarni erkinlashtirilishi natijasida inflatsiya darajasi o'zgaruvchan tendensiyalarda kuzatilmoqda. Har bir mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi uchun inflyatsiyani nazorat qilish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Ushbu maqolada O'zbekistonda inflatsiyaning shakillanish tendensiyalari, inflatsiyaning asosiy sabablari hamda inflatsiyani pasaytirish yo'llari haqida so'z yuritiladi.

1991-1994-yillarda inflyatsiya mamlakat iqtisodiyotidagi eng katta muammolardan biri bo'lgan. Ya'ni O'zbekiston mustaqillikka erishganida sobiq



SSSRdan ajralib chiqqandan so‘ng ishlab chiqarishlar to‘xtab qolgan, tovarlar yetishmagan, davlat pul bosib chiqara boshlagan natijada narxlar juda tez o‘sgan. Odamlarning qo‘lidagi pul qadrsizlanib, aholining hayoti og‘irlashgan. 1995-2000-yillarda hukumat inflyatsiyani kamaytirish uchun chora ko‘rdi. Pul muomalasi nazorat qilindi, milliy valyuta – so‘m mustahkamlanib bordi. Shu yillarda inflyatsiya asta-sekin kamaydi va iqtisodiyot barqarorlasha boshladi. 2010-yilga kelib esa iqtisodiyot barqarorlashib inflatsiya darajasi 7-12% (foiz) atrofida bolgan. 2016-yilda rasmiy malumotlarga ko‘ra inflatsiya darajasi past bo‘lgan ammo bozorlarda narxlar tez o‘sgan. Asosan oziq ovqat mahsulotlari narxi ko‘tarilgan. So‘ngi yillarda valyuta (dollar) bozorini erkinlashtirish sababli milliy valyitamiz (so‘m) qadirsizlandi. Milliy valyuta kursining erkinlashtirilishi eksport va import narxlariga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Narxlarni erkinlashtirish inflatsiya darajasini 14-16% gacha oshirishga sabab bo‘ldi.

Yillar	Yillik infilatsiya %
2015	15,6
2016	14,5
2017	14,4
2018	12,9
2019	15,2
2020	11,1
2021	10
2022	12,1
2023	11,2
2024	9,8

Ushbu jadvalda O‘zbekistonda 10 yillik infilatsiya ko‘rsatgichlari keltirilgan bo‘lib oxirgi yildagi ko‘rsatgich 9,8 foizni ko‘rsatayotgan bo‘lsa da hozirda hukumat tomonidan inflatsiyani 5-9 % oralig‘ida tushirish maqsad qilingan. Buning uchun pul-kredit siyosati qat’iylashtirilmoqda, davlat xarajatlari optimallashtirilmoqda va ichki ishlab chiqarish rag‘batlantirilmoqda.

O‘zbekistonda inflatsiyaning asosiy sabablari qilib quyidagilarni keltirib o‘tsak bo‘ladi: Manapoliya ya’ni ba’zi sohalarda raqobat yetarli emas. Yirik korxonalar narxlarni o‘zlari belgilab, uni sun’iy ravishda yuqori darajada ushlab turishlari mumkun. Yana talab va taklifning mutanosibligini ham keltirishimiz mumkun. Bunda



aholi va korxonalar tomonidan zarur mahsulotlarga talab ko'p, lekin ishlab chiqarish yetarli darajada bo'lmasligi, narxlar majburiy ravishda oshishiga olib keladi.

Inflatsiyani pasaytirish yo'llari:

Pul - kredit siyosatini kuchaytirish: Markaziy bank asosiy foiz stavkasini tartibga solib, pul massasini nazorat qilishi kerak. Bu iqtisodiyotdagi pul aylanishini barqarorlashtiradi.

Ijtimoiy himoya mexanizmini rivojlantirish: Oziq ovqat yetishmovchiligi oldini olinsa, narxlarning mavsumiy tebranishi kamayadi. Zaxiralarning ko'pligi bozorda barqaror taklifni ta'minlaydi.

Raqobatni oshirish: Monopol sohalarda raqobat yaratish narxlarning sun'iy ko'tarilishining oldini oladi. Ko'proq korxonalar bozorga kirsa, narxlar tabiiy ravishda pasayadi.

Xulosa:

O'zbekiston iqtisodiyotida inflyatsiya jarayoni bozor sharoiti bilan bog'liq. Inflatsiyani pasaytirishning eng muhim yo'llari - pul-kredit siyosatini samarali yuritish, mahaliy ishlab chiqarishni rivojlantirish, hamda bozor raqobatini kuchaytirishdan iborat. Inflatsiyaning barqarorlashuvi iqtisodiy o'sish, aholi farovonligi va ijtimoiy barqarorlik uchun zarur sharoit yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomalari. – Toshkent, 2017–2024 yy.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Rasmiy statistik ma'lumotlar va inflyatsiya ko'rsatkichlari. – www.stat.uz
4. Shodmonov Sh.Sh. Iqtisodiyot nazariyasi 1,2